

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.15/31.08.2022.T.73.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN POLITEXNIKA UNIVERSITETI

TO‘YCHIYEV OLIMJON ALIJONOVICH

**YENGIL AVTOMOBIL YURITMASINI TYUNINGLI
GIBRIDLASHTIRISH METODOLOGIYASI**

05.08.06 – G‘ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatish

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc) по
техническим наукам
Contents of dissertation abstract of Doctor of Science (DSc)
on technical sciences

To‘uchiyev Olimjon Alijonovich

Yengil avtomobil yuritmasini tyuningli gibridlashtirish metodologiyasi..... 3

Туйчиев Олимжон Алижонович

Методология тюнинговой гибридизации привода легкового автомобиля..... 27

Tuychiev Olimjon Alijonovich

Methodology for tuning hybridization of a passenger car drive..... 53

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ

List of published works 56

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.15/31.08.2022.T.73.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN POLITEXNIKA UNIVERSITETI

TO‘YCHIYEV OLIMJON ALIJONOVICH

**YENGIL AVTOMOBIL YURITMASINI TYUNINGLI
GIBRIDLASHTIRISH METODOLOGIYASI**

05.08.06 – G‘ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatish

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.DSc/T687 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (<https://tstu.uz/>) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Muxitdinov Akmal Anvarovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qodirov Sarvar Muqaddirovich,
texnika fanlari doktori, professor

Salomov O‘ktam Rahimovich,
texnika fanlari doktori, professor

Gianfranco Rizzo (Italiya),
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon mashinasozlik instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi DSc.15/31.08.2022.T.73.03 raqamli ilmiy kengashi kengashning 2024 yil “20” yanvar soat 11⁰⁰ dagi majlisda bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo‘lchilar ko‘chasi, 1-uy.

Tel.: (99871) 299-00-01, faks: 71-293-57-54, e-mail: rektorat@tstu.uz, tashiit@exat.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo‘lchilar ko‘chasi, 1.

Tel.: (99871) 299-00-01, faks: 71-293-57-54, e-mail: rektorat@tstu.uz, tashiit@exat.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2023 yil “___” _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

A.A.Riskulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

K.Z.Ziyayev

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi, PhD, dotsent

G.A.Samatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, i.f.d., professor

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi (DSc) annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda avtomobil sanoatida, avtotransport vositalaridan foydalanishda energiya resurslarini tejash, bu orqali atmosferaga ajralayotgan issiqxona gazlari miqdorini kamaytirish avtomobilsozlik sanoatining iqtisodiy va ekologik jihatdan rivojlanishi uchun muhim omil sanaladi. Foydalanishdagi avtotransport vositalari yo‘qilg‘i moylash mahsulotlarining asosiy iste‘molchisi bo‘lib, dunyoda ajralib chiqayotgan issiqxona gazlarining 50–70% qismi ular hissasiga to‘g‘ri keladi. Shundan kelib chiqib, jahon avtomobilsozlik sanoati ishlab chiqarilayotgan va rejalashtirilayotgan yangi avlod avtomobillaridan minimal darajada CO₂ gazlari ajralishini ta‘minlashga intilmoqda, shuningdek, bugun Yevropa davlatlarining aksariyati 2030-yilga qadar avtomobil vositalaridan chiqayotgan CO₂ gazlarini kamida 2 barobarga kamaytirish ta‘minlashga katta e‘tibor qaratmoqda¹.

Bugungi kunda dunyoda avtomobilsozlik sohasidagi yirik kompaniyalar yoqilg‘i tanqisligi va narxining oshib borishi natijasida loyihalashda elektr va gibril yuritmalarini qo‘llash usullarini yanada chuqurroq tadqiq etishga alohida ahamiyat bermoqda. Bu borada P5 sxemaga ega bo‘lgan gibril yuritmalil avtomobilda quvvat ichki yonuv dvigateli va elektr dvigatelidan alohida yo‘nalishlar orqali yetakchi g‘ildiraklarga berilishi eng samarali usullardan ekanligi katta ahamiyatga ega. Shu jihatdan yuqori yonilg‘i samaradorlikka erishish uchun avtomobil gibril yuritmasi parametrlari va boshqaruv rejimlarini, ma‘lum bir toifadagi foydalanishdagi avtomobillar va ularning harakat rejimlariga qo‘yiladigan talablarga qarab tanlash usullarini ishlab chiqish, nazariy va amaliy tadqiqotlarning asosiy zarur masalalaridan hisoblanmoqda.

Mamlakatimizda hozirda tabiiy xomashyolardan foydalanishda energiya samaradorligini oshirish uchun energiya tejamkor transportlardan foydalanishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta‘minlash hamda “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish”² masalalari alohida belgilab berilgan. Shu munosabat bilan, sanoat tarmoqlarida yo‘qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish, elektromobillar ishlab chiqarish va ulardan foydalanish bo‘yicha choralar ko‘rish, iqtisodiyot tarmoqlarining havoga chiqaradigan zararli gazlar hajmini bir birlik yalpi ichki mahsulot hisobida 10 foizga qisqartirish, avtomobil gibril yuritmasi manbalari o‘rtasida harakat uchun zaruriy momentni taqsimlash orqali eng kam yonilg‘i sarfini ta‘minlaydigan yuritma boshqaruv rejimlarini tanlash usulini ishlab chiqish va yonilg‘i-tejamkorlik xususiyatlarini yaxshilash bo‘yicha avtomobilning gibril yuritmasi parametrlarini tanlash, shuningdek, gibril yuritmaga ega avtomobilning yonilg‘i va energiya sarfini

¹ Robert Bosch GMBH, Bosch Automotive Handbook, 10th Edition, 2018. – 1750 pp, ISBN: 978-1-119-53081-7.

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 06/22/60/0082-son, 24-maqсад.

hisoblashda imitatsion modellardan foydalanish usullarini takomillashtirish masalalari sohadagi ilm-fan uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-martdagi PQ-3589-son “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi avtomobil transportini boshqarish tizimi”, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son “2019–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 19-dekabrda “Elektromobillar ishlab chiqarishni tashkil etishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-443-son Qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining III. “Energetika, energiya va resurs tejamkorlik, transport, mashina va asbobsozlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Avtomobil yonilg‘i-tejamkorlik va tortish-tezlik xususiyatlarini yaxshilash maqsadida avtomobil gibrid yuritmasi parametrlari va boshqaruv rejimlarini tanlash bo‘yicha keng qamrovli nazariy va amaliy tadqiqotlar jahonning yetakchi universitetlari va ilmiy laboratoriyalarida, jumladan, Salerno universiteti (Italiya), Toronto universiteti (Kanada), Shanxay Jiaotong universiteti (Xitoy), Gongkong Shatin Xitoy universiteti (Xitoy), Missisipi davlat universiteti Ilg‘or yuritma tizimlari markazi (AQSH), Turin politexnika universiteti (Italiya), Sannio unversiteti (Italiya), Oukland universiteti (AQSh), Myunxen texnika universiteti, Braunshveyg texnika universiteti (Germaniya), Uxan universiteti elektr muhandislik maktabi (Xitoy), Tehron universiteti (Eron), Kampinas universiteti (Braziliya) va boshqalarda amalga oshirilmoqda.

Avtomobil gibrid yuritmasi parametrlari va ish rejimlarini tanlash bo‘yicha dunyo miqyosida, jumladan, quyidagi muhim ilmiy natijalar olingan: avtomobillarda gibrid yuritmalarni qo‘llash, ularning boshqaruv rejimi sifatida mantiqiy qoidalarga asoslangan rejimlardan foydalanib, avtomobil gibrid yuritmasi parametrlarini tanlash usullari ishlab chiqilgan (Texas qishloq xo‘jalik va mexanika universiteti, AQSh); turli konfiguratsiyali gibrid yuritmalari avtomobillarning harakat modellarini ishlab chiqib, ularda dinamik dasturlashga asoslangan boshqaruv rejimlarini qo‘llash imkoniyatlarini ko‘rib chiqilgan (Syurixdagi Shveysariya oliy texnika maktabi, Shveysariya); Pontryagin minimum prinsipidan foydalangan boshqaruv rejimlari ishlab chiqilgan (Ohayo va Stendford universitetlari, AQSh); gibrid yuritmasi konfiguratsiyasining avtomobil energo-ekologik ko‘rsatkichlariga ta’siri o‘rganilgan va avtomobil dinamik va yonilg‘i-tejamkorlik xususiyatlari yaxshilanishini ta’minlaydigan, ikki ilishish muftali transmissiyaning konstruktiv yechimi ishlab chiqilgan (Braunshveyg texnika universiteti, Germaniya).

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Avtomobil gibrid yuritmasini

³www.tamu.edu, www.ethz.ch, www.polito.it, www.stanford.edu, www.tum.de, www.tu-braunschweig.de, www.anl.gov, avt.inl.gov, www.osu.edu, www.clemson.edu, www.polimi.it, www.kth.se, www.chalmers.se

loyihalash, ularning ish rejimlarini takomillashtirish hamda parametrlarini tanlashda bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo‘shganlar. Jumladan, M. Ehsani, A.Emadi, Liu K, Z. Rahman, L. Guzzella, Noshirwan K, G. Rizzo, F.Tiano, S.Onori, N. Amati, T. Hofman, F. Kucukay, A. Sciarretta, O Sundström va boshqalar.

Respublikamizda dvigatel va avtomobilning tortish-tezlik va yonilg‘i-tejamkorlik xususiyatlarining turli ish sharoitlari, yonilg‘i, transmissiya va mexatron boshqaruv bloklari tadqiqotlari bilan taniqli olimlardan S.M. Qodirov, Sh.P.Alimuxamedov, B.I. Bazarov, J.R. Qulmuxamedov, A.A. Muxitdinov, J.Sh. Inoyatxodjaev, S.Ro‘zimov va boshqalar shug‘ullanishgan. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida issiq va quruq iqlim sharoitlarida turli dvigatellarga ega avtomobillarning eksplutatsion ko‘rsatkichlarini yaxshilash, eng yuqori tezlanish va yonilg‘i-tejamkorlik xususiyatlarini ta‘minlash maqsadida dvigatel va pog‘onasiz transmissiyani muvofiqlashtirilgan holda boshqarish, dvigatel mexatron boshqaruv tizimlarida neyron tarmoqlardan foydalangan holda yonilg‘i-tejamkorlik xususiyatlarini yaxshilashga erishildi.

Ushbu tadqiqotlarda avtomobilning yuqoridagi xususiyatlarini yaxshilash yo‘llari va usullarini batafsil o‘rganilgan bo‘lsa-da, foydalanishdagi avtomashinalarda minimal o‘zgarishlar hisobigaa tyuningli gibridlashtirish jarayonlarining nazariy asoslari va metodikasi tadqiq qilinmagan. Shuningdek, avtomobilning tyuningli gibrid yuritmasi parametrlari va boshqaruv rejimlarini tanlashning ilmiy asoslari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti alohida qismlari, dissertant mas‘ul ijrochi vazifasini bajargan ilmiy-tadqiqot ishlari: 18.11 “Avtomobilida gibrid yuritmani qo‘llash orqali energiyani tejash va atrof-muhit muhofozasi” (2003–2005), A-13-068 “Yonilg‘i tejamkorligi va ekologik xavfsizligi bo‘yicha avtomobil perspektiv konstruksiyasining parametr va boshqaruv rejimlarini tanlashning ilmiy asoslari” (2006–2008) mavzularidagi loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ikkilamchi bozor avtomobilining yonilg‘i samaradorligi va ekologik xavfsizligini oshirish uchun gibridizatsiya parametrlari va boshqaruv rejimlarini tanlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yuritmani gibridlashtirish samaradorligini baholash mezonlarini asoslash;
baholash mezonlari ko‘rsatkichlarini yaxshilash bo‘yicha tyuning gibrid yuritmasi parametrlarini tanlashning energetik tahlil metodini ishlab chiqish;

P5 konfiguratsiyali gibrid yuritmal avtomobilning energiya samaradorligini baholash hisob dasturini ishlab chiqish;

tyuning gibrid yuritmal avtomobil boshqaruv qonuniyatlarini tanlash metodini ishlab chiqish;

P5 konfiguratsiyali gibrid yuritmal avtomobil imitatsion modelining yonilg‘i va energiya sarflari hisobi usuli ishonchliligini eksperimental baholash;

tyuning avtomobil gibrid yuritmasi parametrlari va boshqaruv rejimlarini tanlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti – parallel konfiguratsiyali (P5) gibrid yuritmaga ega

yengil avtomobil.

Tadqiqotning predmetini gibrid yuritmalı tyuning avtomobil parametrlari va boshqaruv rejimlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida avtomobil dinamikasi va yonilg'i tejamkorligi hisobi, ko'p o'zgaruvchili optimizatsion, regression tahlil, matematik statistika va imitatsion modellashtirish usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

avtomobilning tortish-tezlik va energo-ekologik ko'rsatkichlari tyuning gibrid yuritmasidan foydalanish orqali takomillashtirilgan;

mavjud avtomobil yuritmasini tyuning gibrid yuritmasi bilan o'zaro muvofiqlashtiruvchi boshqaruv qonuniyatlarini tanlash uslubi ishlab chiqilgan;

yuqori yonilg'i samaradorlikka erishish uchun avtomobil gibrid yuritmasi komponentlari quvvat ko'rsatkichlarini tanlash orqali yuritma parametrlarini tanlash uslubi ishlab chiqilgan;

avtomobil tyuning P5 konfiguratsiyali gibrid yuritmasi parametrlari va boshqaruv qonuniyatlari yuritma energiya samaradorligini baholash hisob dasturi yordamida takomillashtirilgan;

tyuning gibrid yuritmalı avtomobil hisob dasturi ishonchliligi, uni avtomobil va yuritma qismlarining dinamometrik stend natijalari bilan qiyoslash orqali asoslangan;

mavjud avtomobil yuritmasini P5 gibrid yuritmasiga aylantirishning texnik-iqtisodiy samaradorligini yuritma parametrlarini tanlash orqali oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

eng kam yonilg'i sarfiga erishishni ta'minlaydigan avtomobil gibrid yuritmasi parametrlari va boshqaruv rejimlarini tyuning jarayonida tanlash uslubi asoslangan;

me'yoriy sikllarda avtomobil harakati uchun zarur bo'ladigan energiyani hisoblash orqali gibrid yuritma elektr energiya manbasini mutanosib aniqlash uslubi yaratilgan;

ishlab chiqilgan uslublarni avtomobil elektr komponentlarini mavjud ichki yonuv dvigateli bilan muayyan harakat sharoitlarida o'zaro moslagan holda boshqarish imkoniyati ko'rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularni dunyoning yetakchi laboratoriyalari eksperimental ma'lumotlariga va soha bo'yicha yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilgan natijalariga mos kelishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati avtomobil gibrid yuritmasi parametrlari va boshqaruv rejimlarini tanlashning ishlab chiqilgan metodi bilan asoslanadi.

Olingan natijalarning amaliy ahamiyati avtomobilni loyihalash jarayonida gibrid yuritma parametrlari va boshqaruv rejimlarini tanlash orqali yoqilg'i-energetik resurslarni tejash bilan belgilanadi. Bundan tashqari, avtomobil gibrid yuritmasi parametrlarini tanlash metodi muayyan harakat sharoitlari uchun mos avtomobil modellarini tanlash imkonini berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ikkilamchi bozor avtomobilining

yonilg‘i samaradorligi va ekologik xavfsizligini oshirish uchun gibrizatsiya parametrlari va boshqaruv rejimlarini tanlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqishda olingan natijalarga asosida:

“O‘zavtosanoat” AJ tizimida mavjud avtomobil yuritmasini tyuning gibriz yuritmasi bilan o‘zaro muvofiqlashtiruvchi boshqaruv qonuniyatlarini tanlash uslubi, yuqori yonilg‘i samaradorlikka erishish uchun avtomobil gibriz yuritmasi komponentlari quvvat ko‘rsatkichlarini tanlash orqali yuritma parametrlarini tanlash uslubi, avtomobil tyuning P5 konfiguratsiyali gibriz yuritmasi parametrlari va boshqaruv qonuniyatlari yuritma energiya samaradorligini baholash hisob dasturi joriy etildi (“O‘zavtosanoat” AJning 2023-yil 18-oktabrdagi №19/04-25-1586 ma‘lumotnomasi). Natijada, yangi foydalanishdagi avtomobillar modellarini loyihalash yoki tanlashda ularning konstruktiv parametrlari va boshqaruv rejimlarini tanlash, bu avtomobil energiya samaradorligini baholash va muayyan harakat sharoitlarida yonilg‘i sarfini aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-texnik anjumanlarida ma‘ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha umumiy 21 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, jumladan 6 ta respublika va 5 ta chet el ilmiy jurnallarida nashr etilgan. Shulardan 11 ta maqola yuqori impakt faktorli jurnal va anjumanlarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 148 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida gibriz yuritmaning foydalanishdagi avtomobillarda tyuningli qo‘llash bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan. Ishning asosiy maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekt va predmeti, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Ishning ilmiy yangiligi va gibriz yuritmal avtomobillarning parametr va boshqaruv rejimlarini tanlash bo‘yicha tadqiqotning asosiy natijalari, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan. Shuningdek, dissertatsiya ishi natijalarining amaliyotga tatbiqi, mavzu bo‘yicha nashr etilgan ishlar va uning tarkibiy tuzilishi bo‘yicha umumiy ma‘lumotlar yoritilgan.


Dissertatsiya ishining “**Gibriz yuritmal avtomobilning zamonaviy konstruksiyalari**” nomli birinchi bobida avtomobil gibriz yuritmasi parametrlari va boshqaruv rejimlarini tanlash orqali avtomobil yonilg‘i sarfini kamaytirish muommosining hozirgi holati va mavjud ilmiy ishlar sharhi keltirilgan. Shundan kelib chiqib, avtomobil gibriz yuritmasi parametrlari va boshqaruv rejimlarini tanlash bo‘yicha mavjud metodlar, ularning yechimi bo‘yicha texnika-texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari ko‘rib chiqilgan.

Avtomobil yonilg'i-tejamkorlik va tortish-tezlik xususiyatlarini gibrid yuritma parametrlari va boshqaruv rejimlarini tanlash orqali yaxshilash bilan xorijiy ilmiy izlanuvchilardan A. Emadi, M. Ehsani, Liu K, Z. Rahman, L. Guzzella, K.Noshirwan, G. Rizzo, F.Tiano, S. Onori, N. Amati, T. Hofman, F. Kucukay, A.Sciarretta, O. Sundström va boshqalar shug'ullanishgan.

Avtomobil va dvigatelning tortish-tezlik va yonilg'i-tejamkorlik xususiyatlarining turli ish sharoitlari, yonilg'i, transmissiya va mexatron boshqaruv bloklari taniqli olimlardan S.M. Qodirov, Sh.P.Alimuxamedov, B.I.Bazarov, J.R. Qulmuxamedov, A.A. Muxitdinov, J.Sh.Inoyatxodjeyev, S.Ro'zimov va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Ularning tadqiqotlarida avtomobil xususiyatlarini yaxshilash yo'llari va usullari keng yoritilgan bo'lsa-da, foydalanishdagi mavjud avtomobillarda gibrid yuritmalarni qo'llash (tyuningli gibrillashtirish) yonilg'i-tejamkorlik va tortish-tezlik xususiyatlarini takomillashtirishning yangi imkoniyatlarini taqdim etadi.

Avtomobil gibrid yuritmalarining mavjud sxemalari tahlili tyuningli gibrillashtirish uchun P5 konfiguratsiya eng istiqbolli konstruktsiya ekanligini ko'rsatdi. Bu tanlov, asosan, yuritma parametrlarini turli massali avtomobillarga moslashtirish, mavjud konstruktsiyaga tatbiq etish, barcha rejimlarda ishlash imkoniyatlariga ega ekanligi va nisbatan soddaligi (minimal o'zgartirishlar bilan) bilan izohlanadi. Bulardan tashqari, gibrid yuritmaning bu konfiguratsiyasi gibrizatsiya darajasini o'zgartirishning amaliy soddaligi bilan ajralib turadi. Bugungi kunda ishlab chiqarishda mavjud 110 ta gibrid yuritmalik avtomobillar tahlili asosida quyidagilar aniqlandi: ulardagi ichki yonuv dvigateli (IYoD) maksimal quvvati avtomobilning minimal tezlanish talablarini qanoatlantiradi (1-rasm); odatiy yuritmalik avtomobillarda qo'llanilgan IYoDdan kam bo'lmagan ishchi hajmlardan foydalanilgan; bu avtomobillarning 60% dan ortiq qismida 1-2 kVt·soat sig'imli batareyadan foydalanilgan.

Zamon o'zgarishi va elektromobillarga bo'lgan ishonchning ortishi aholining elektr motorli avtomobillarni ko'proq xarid qilishida o'z aksini topdi. Bundan besh yil oldin, 2018-yilda O'zbekiston aholisi jami 13 ta elektromobil xarid qilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bo' ko'rsatkich 2180 taga yetdi (1-rasm). Albatta, bu birinchidan, aholi turmush darajasining yaxshilanishidan kelib chiqqan bo'lsa, ikkinchidan, dunyo avtomobil bozorida elektromobillarning ortishi, raqobat kuchayishi, buning ortidan elektromobillarning narxlarini sezilarli darajada tushganligi bilan ham bevosita bog'liq.



1-rasm. 2018–2022-yillarda O‘zbekistonda avtomobillar importi statistikasi


Aholida mavjud transport vositalari soni ortib borayotganligi sababli yoqilg‘i mahsulotlariga bo‘lgan talab ham oshib bormoqda. Benzin misolida olinadigan bo‘lsa, 2021-yilda jami 575 mln AQSh dollari qiymatidagi 1,0 mlrd litr benzin mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 690 mln AQSh dollar qiymatda 1,2 mlrd litrga teng bo‘ldi yoki o‘shish sur‘ati 20% ni tashkil qilgan. 2021-yilda jami 68,75 mln AQSh dollari qiymatida 190 mln litr benzin import qilingan bo‘lsa, 2022-yilda import 90%ga oshib 130 mln AQSh dollar qiymatida 361 mln litr benzin mahsulotlari import qilingan. Shuningdek, mamlakatimizdagi mavjud avtomashinalarning 65% qismi siqilgan tabiiy gaz qurilmalari bilan jihozlangan va tabiiy gaz yoqilg‘isi iste‘mol qiladi.

O‘zbekistonda 2018–2022-yillarda avtomobil ishlab chiqarish sur‘atlari tahlil qilinganda 5 yil ichida umumiy ishlab chiqarish 128 mingdan 295 minggacha yetgan. Shuningdek, tahlillar natijalariga ko‘ra B-sinf (o‘rta) avtomobillarining ulushi sezilarli ortgan. Ayniqsa, o‘rta segmentdagi Cobalt, Genra kabi sedan tipdagi avtomobillarga bo‘lgan talab, o‘z o‘rnida ishlab chiqarish mos ravishda yiliga 20 ming avtomobildan 90 minggacha oshirilgan. Mavjud ilmiy tadqiqotlar holati tahlili bugungi kunda avtomobil dinamik xususiyatlarini saqlagan holda eng kam yonilg‘i sarfini ta‘minlovchi gibril yuritma parametrlari va boshqaruv rejimlarini tanlashning ilmiy asoslari yo‘qligini ko‘rsatdi. Shundan kelib chiqib, turli talablarni hisobga olgan holda turli harakat sharoitlari uchun eng maqbul yonilg‘i samaradorlikka erishish imkonini beruvchi avtomobil gibril yuritmasi tyuningli elektrlashtirish parametrlari va boshqaruv rejimlarini tanlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish zarur.

Dissertatsiyaning **“Avtomobillarning gibril yuritmasi komponentlari parametrlarini tanlash uchun nazariy asoslar”** nomli ikkinchi bobida gibril yuritmalil avtomobilning me‘yoriy sikllarda harakatini modellashtirishning nazariy asoslari, yuritma komponentlari modellari va imitatsion modelni ishlab chiqish

masalalari ko‘rilgan. Shuningdek, gibridd yuritmal avtomobil parametrlari va boshqaruv rejimlarini tanlashning mavjud metodlari tahlil qilingan.

Optimallashtirish usullariga asoslangan boshqaruv rejimlaridan foydalanish ularning avtomobilning gibridd haydovchisi parametrlarini tanlashga ta’sirini bartaraf etishga imkon beradi. Gibridd yuritmaning asosiy parametrlari quyidagilar: ichki yonuv dvigateling maksimal quvvati va elektr transport vositasi, shuningdek, tortish batareyasining quvvati. Muayyan haydash sharoitida eng kam yoqilg‘i sarfiga erishish uchun gibridd avtomobil parametrlarini aniqlash uchun ushbu parametrlarning avtomobilning yoqilg‘i sarfiga ta’sirini tahlil qilish kerak. Ushbu parametrlarni o‘zgartirib, barcha dinamik talablarga javob beradigan va ayni paytda eng kam yoqilg‘i sarfiga ega bo‘lgan parametrlar kombinatsiyasini topish mumkin.



2-rasm. Ishlab chiqilgan gibridd dvigatelni boshqarish algoritmi

Harakat turini tanlash, ya’ni shahar ($HS=1$) yoki magistral ($HS=2$) harakat turlaridan birini tanlash orqali amalga oshiriladi. Amaliy holatda bu jarayon haydovchi tomonidan kerakli tugmani bosish orqali tanlanishi mumkin. Bunda avtomobil shaharda harakatlanganida, asosan, elektr yuritmasidan foydalanish nazarda tutilgan. Magistral siklda tortish rejimi ichki yonuv dvigateli tomonidan amalga oshiriladi.


Harakat rejimlarini tanlash, talab etilgan burovchi moment T_{req} qiymatiga bog‘liq holda aniqlanadi. Bunda $T_{req} > 0$ tortish rejimini anglatadi va tortish uchun zarur bo‘lgan energiya manbai tanlanilishi lozim. $T_{req} = 0$ to‘xtab turish rejimini ifodalaydi. Tormoz rejimida bu burovchi moment manfiy qiymatga ega bo‘ladi, ya’ni $T_{req} < 0$.

Haydovchi tomonidan $HS=1$ (shahar) rejimi tanlanganda belgilangan algoritmgaga ko'ra elektr yuritmada harakatlanish ta'minlanadi. Bunda bir qancha shartlar bir vaqtning o'zida bajarilishi talab etiladi. Kiritilgan shartlar barchasi to'liq bajarilmagan holatda, avtomashina avtomatik ravishda $HS=2$ (magistral) rejimga o'tadi. Elektr yuritmada harakatlanish uchun:

- 1) $SOC > 16\%$ sharti, ya'ni elektr batareyaning zaryadlanganlik darajasi belgilangan miqdordan (masalan, 16%) yuqori bo'lishi;
- 2) $T_k \leq T_{EMmax}$, ya'ni T_k g'ildirak burovchi momenti elektr yuritma burovchi momentiga teng yoki kichik bo'lishi shart.



Harakat rejimlari tanlanganidan so'ng $T_{req} < 0$ bo'lsa, ya'ni burovchi moment manfiy qiymatda bo'lganda, tormozlanish amalga oshiriladi. Bunda tormozlash jarayonining bir qancha shartlariga ko'ra *rekuperativ*, *frikсион* yoki *rekuperativ + frikсион* tormozlash rejimi ishlashi mumkin.




3-rasm. Tormozlash shartlari

$SOC < SOC_{max}$ sharti bajarilganda, ya'ni batareyaning zaryadlanganlik darajasi, belgilangan miqdordan kichik bo'lgan holatda, *rekuperativ* tormozlanish ishlaydi. Yuqoridagi shart bajarilmaganda, *frikсион* tormozlanish amalga oshiriladi. $T_k \geq -T_{em.max}$ holatida, g'ildirakdagi tormozlovchi moment elektr dvigatel maksimal burovchi momentidan katta yoki teng bo'lganda, *to'liq rekuperativ* tormozlanish ishlaydi. Mazkur shart bajarilmaganda esa, *rekuperativ + frikсион* tormozlanish amalga oshiriladi.

Avtomobilning ma'lum bir markasi va modelini tanlashda asosiy omillardan biri bu yoqilg'i sarfidir. Biroq, avtomobil ishlab chiqaruvchilari pasportda haqiqiy

foydalanishda aniq bo‘lmagan ko‘rsatkichlarni taqdim etadi. Bu qisman zavod sinovlari paytida tegishli (odatiy) sharoitlarda haqiqiy tezlik chegarasini aks ettirmaydigan haydash sikllaridan foydalanish bilan bog‘liq. Bu, ayniqsa, shahar sharoitlari uchun to‘g‘ri keladi. Ma‘lumki, hatto bir mamlakat sharoitida ham hudud va aholi zichligi, yo‘l tarmog‘ining uzunligi bo‘yicha taqqoslanadigan shaharlardagi yo‘llarning holati, harakatning o‘rtacha tezligi va uning davomiyligidagi farqni hisobga olmaganda, turli bosqichlar (tezlanish, barqaror tezlikda harakatlanish, megapolislar, kichik shaharlarda tormozlash va to‘xtash) sezilarli darajada farqlanadi.

Ma‘lumki, sun‘iy odatiy haydash davrlarini olish ko‘p vaqt talab qiladigan jarayondir va ko‘pincha natijada paydo bo‘lgan tezlik sxemasi endi o‘zgaruvchan yo‘l sharoitlariga mos kelmaydi. Misol uchun, hali ham qo‘llaniladigan Yevropa NEDC sikli 1980-yillarda ishlab chiqilgan. Biroq, maqbul vaqt oralig‘ida statistik ma‘lumotlardan olingan adekvat tipik haydash sikllariga bo‘lgan ehtiyoj saqlanib qolmoqda. Uzoq muddatli eksperimental tadqiqotlar muammosini hal qilish uchun butun dunyoda keng tarqalgan onlayn sun‘iy yo‘ldosh monitoringining joriy ma‘lumotlar bazalaridan foydalanish mumkin.



4-rasm. NEDC harakat sikli

a) Ushbu grafikda NEDC harakat siklida IYoD maksimal burovchi momenti ($T_{IYoD.max}$) qora nuqta-uzuk chiziq (.....) bilan berilgan. Talab etilgan burovchi moment (T_{req}) qizil nuqta-nuqta chiziq (.....) bilan ko‘rsatilgan. IYoD tomonidan berilgan burovchi moment (T_{IYoD}) ko‘k uzluksiz chiziq (—) orqali ifodalangan.


b) Mazkur grafikda NEDC harakat siklida IYoD maksimal burovchi momenti ($T_{IYoD.max}$) qora nuqta-uzuk chiziq EM maksimal burovchi momenti ($T_{EM.max}$) qora

nuqta-uzuk chiziq (.....) bilan berilgan. G'ildiraklardagi talab etilgan burovchi moment (T_k) qizil nuqta-nuqta chiziq (.....) bilan ko'rsatilgan. EM tomonidan berilgan burovchi moment (T_{EM}) ko'k uzluksiz chiziq (—) orqali ifodalangan.


c) Ushbu grafik NEDC harakat siklida davomida tezlikning o'zgarishini ifodalaydi.

Monitoring tizimlarining barcha serverlari tomonidan yaratilgan haydash tezligi hisobotlari asosida haydash siklini sintez qilish uchun statistik material sifatida faqat yangilanish muddati yetarlicha qisqa bo'lganlar mos keladi. Biroq, hozirgi minimal tezlikni yangilash chastotasi bir soniya bilan olingan tezlik rejimlari ham oldindan ishlov berishni talab qiladi. Buning sababi shundaki, tezlik qiymatlari GNSS tizimi tomonidan sun'iy yo'ldoshdan olingan koordinatalar asosida hisoblab chiqiladi va sezilarli mahalliy xatolik beradi va u ham ijobiy, ham salbiy bo'lishi mumkin. Buning uchun spektral ma'lumotlarni tahlil qilish vositalaridan foydalangan holda ma'lumotlarni kattalashtirishdan foydalanish mumkin. Masalan, Wavelet transformatsiyasi. GNSS monitoring ma'lumotlarini ma'lum bir tafsilotga yaqinlashtirish tezlik profilining butun maydoni bo'ylab chegaralarni tekislash imkonini beradi.

Grafiklarda zaruriy burovchi moment elektr mashinasi burovchi momentidan katta bo'lgan holda to'liq harakat uchun zarur burovchi moment IYoD tomonidan ta'minlanganini ko'rishimiz mumkin. Bu holda EM burovchi momenti nolga teng bo'ladi. Grafikdan ko'rinib turibdiki, NEDC siklining magsitral qismida (800-sekunddan so'ng) elektr mashinasi umuman ishtirok etmaydi, aksincha IYoD to'liq zaruriy burovchi momentni ta'minlaydi. Butun harakat sikli davomida EM burovchi momenti talab etilgan burovchi momentning -250 dan 250 gacha bo'lgan diapozonida faol ishtirok etganini ko'rish mumkin. Demak, ushbu diapozonda EM burovchi moment musbat holatida tortish rejimida, manfiy holatlarda esa, rekuperatsiya rejimida ishlaydi. 800-sekunddan keyin esa faqat rekuperativ tormozlanishni ta'minlaydi. 1000–1200-sekundlar oraliq'ida esa IYoD burovchi momentining egri chizig'i talab etilgan burovchi moment egri chizig'i bilan ustma-ust tushgan. Bu esa, ushbu oraliqda ichki yonuv dvigatelining talab etilgan burovchi momentni to'liq ta'linlab berganini anglatadi. Aynan shu oraliqda EM burovchi momenti ishtirok etmagan. 1000–1200-sekund oraliq'ida tezlik 80–110 km/soatgacha yetgan. 1000 sekunddan keyin asosan magistral harakat rejimida IYoD ishlaganligi sababli, yonilg'i sarfi keskin o'zgarishini kuzatish mumkin. Harakat siklining shahar qismida, asosan, batareya zaryadlanganlik darajasining (SOC) kamayishi kuzatiladi (800-sekundga qadar). Magistral harakat rejimida, asosan, EM rekuperativ tormozlash jarayonlari sababli, batareya zaryadi o'sishini kuzatiladi. Ichki yonuv dvigatelining yoqilg'i sarfi keskin oshgan oraliqda avtomobil tezligining ham keskin oshganligini ham kuzatish mumkin, bu esa tyuningli gibrid rejimining har xil tezlik va burovchi momentda har xil ta'minlovchi manba (EM yoki IYoD) tanlayotganini bildiradi.



5-rasm. NEDC harakat sikli: a) harakat sikli; b) yonilg‘i sarfi; c) batareya zaryadlanganlik darajasi




6-rasm. WLTC harakat sikli: a) IYoD burovchi momenti; b) EM burovchi momenti; c) harakat sikli bo‘yicha tezlikning o‘zgarish grafiki

d) Bu grafikda WLTC harakat siklida IYoD maksimal burovchi momenti ($T_{IYoD.max}$) qora nuqta-uzuk chiziq (.....) bilan berilgan. Talab etilgan burovchi moment (T_{req}) qizil nuqta-nuqta chiziq (.....) bilan ko'rsatilgan. IYoD tomonidan berilgan burovchi moment (T_{IYoD}) ko'k uzluksiz chiziq (—) orqali ifodalangan.

e) Mazkur grafikda WLTC harakat siklida IYoD maksimal burovchi momenti ($T_{IYoD.max}$) qora nuqta-uzuk chiziq EM maksimal burovchi momenti ($T_{EM.max}$) qora nuqta-uzuk chiziq (.....) bilan berilgan. G'ildiraklardagi talab etilgan burovchi moment (T_k) qizil nuqta-nuqta chiziq (.....) bilan ko'rsatilgan. EM tomonidan berilgan burovchi moment (T_{EM}) ko'k uzluksiz chiziq (—) orqali ifodalangan.

f) Ushbu grafik WLTC harakat siklida davomida tezlikning o'zgarishini ifodalaydi.

Zaruriy burovchi moment elektr mashinasi burovchi momentidan katta bo'lgan holda to'liq harakat uchun zarur burovchi moment IYoD tomonidan ta'minlanganini ko'rishimiz mumkin. Bu holda EM burovchi momenti nolga teng bo'ladi.



7-rasm. WLTC harakat sikli: a) harakatsiklikda tezlik o'zgarishi; b) yonilg'i sarfining harakat siklida o'zgarishi; c) batareya zaryadlanganlik darajasi

Grafikdan ko'rinib turibdiki, WLTC siklinin magistral qismida elektr mashinasi umuman ishtirok etmaydi, aksincha, IYoD to'liq zaruriy burovchi momentni ta'minlaydi. Magistral siklda faqatgina tormoz jarayonida EM recuperative tormozlash rejimida ishlaydi. Bunda ba'zi hollarda rekuperativ+frikcion tormozlash amalga oshiriladi. *a*, *b* va *c* grafiklar solishtirilganda, *b* grafikda tasvirlangan holatda 1000-sekunddan keyin EM burovchi momenti nol va manfiy qiymatga o'zgargani ma'lum bo'ladi. Talab etilgan burovchi moment manfiy qiymatga -250 Nm qiymatgacha tushganda EM burovchi

momenti bilan bir chiziqda joylashgan. -250 Nm dan past qiymatda esa faqat talab etilgan burovchi momentning o'zi tasvirlangan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, -250 Nm talab etilgan burovchi momentda rekuperativ tozmozlanish amalga oshmoqda, undan pastda esa friksion tormozlanish kuzatiladi.


1000 sekundan keyin, asosan, magistral harakat rejimida IYoD ishlaganligi sababli, yonilg'i sarfi keskin o'zgarishini kuzatish mumkin. Harakat siklining shahar qismida, asosan, batareya zaryadlanganlik darajasining (SOC) kamayishi kuzatiladi. Magistral harakat rejimida, asosan, EM recuperative tormozlash jarayonlari sababli, batareya zaryadi o'sishini kuzatish mumkin.

Shuningdek, UDDS harakat sikli: a) IYoD burovchi momenti; b) EM burovchi momenti; c) harakat sikli bo'yicha tezlikning o'zgarish grafiklari ham keltirilgan. Bunda:

grafikda UDDC harakat siklida IYoD maksimal burovchi momenti ($T_{IYoD.max}$) qora nuqta-uzluq chiziq (.....) bilan berilgan. Talab etilgan burovchi moment (T_{req}) qizil nuqta-nuqta chiziq (.....) bilan ko'rsatilgan. IYoD tomonidan berilgan burovchi moment (T_{IYoD}) ko'k uzluksiz chiziq (___) orqali ifodalangan.

Osma konstruksiyasida haydash qulayligi va yo'lda muvozanatni ushlab turish asosiy e'tibor qaratiladigan jihat hisoblanadi. Gibril yuritmal avtomashinalarda (P5) g'ildirak ichidagi dvigatel o'zgartirilmagan massaga kiruvchi og'irlikni keltirib chiqaradi, bu esa osmaning barqaror ishlashiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Ushbu bobda osmasiz massaning osma massasiga nisbati m massa nisbati sifatida aniqlanadi. 8-rasmda m ning avtomobil kuzovining tezlashishi va shinalar burilishining chastota reaksiyalariga ta'siri ko'rsatilgan.


Cheklovlar yo'ning vertikal tezligidan yo'ning vertikal tezligiga yoki boshqa bog'liq uzatish funksiyalariga o'tish funksiyasida mavjud bo'lgan o'zgarma nuqtalardir. Ushbu maxsus nuqtalarda chastota reaksiyalar o'zgarma bo'lsa-da, ba'zi avtomobil parametrlari o'zgaradi, masalan, to'xtatib turish, qattqlik va demping. O'zgarma nuqta avtomobil kuzovi tezlashuvining chastotali javobida qora nuqta bilan belgilanadi. Bu fixed invariant point (FIP) deb ataladigan nuqta. FIP faqat shinaning qattqligi, osma bilan va osmasiz massaga bog'liq bo'lgan o'zgarma nuqtadir, lekin osmaning qattqligi, demping yoki faol qo'zg'atuvchi kuchiga emas. Boshqacha qilib aytganda, FIP o'zgarma nuqtaning chastotasi va daromadiga osma turlari, jumladan, boshqariladigan va boshqarilmaydigan osmalar ta'sir qilmaydi. Binobarin, ikkinchi darajali rezonansda tarqaladigan massa tebranishlarini kamaytirib bo'lmaydi. Demak, nima bo'lishidan qat'i nazar, boshqarilmaydigan osma va boshqariladigan osma burilmagan salbiy ta'sirni to'liq bartaraf eta olmaydi.




8-rasm. Massa nisbati ta'sirlari: kuzov tezlanishi

8-rasmda ko'rsatilganidek, 2 tartibli rezonans atrofida m ga ortiqcha massa tezlanishining ortishini ta'minlaydi. Aksincha, ikkinchi tartibli rezonans chastotasi m ortishi bilan kamayadi. E'tibor berilsa, odamlar 4–8 Gts atrofida vertikal tezlashuvga eng sezgir. Shunga o'xshab, 9-rasmda ko'rsatilganidek, katta bo'lmagan massa ikkinchi darajali rezonans atrofida shinalar burilishining katta ortishiga olib keladi, bu esa yo'lni ushlab turish qobiliyatiga zararli.

Umuman olganda, boshqariladigan osmalar yordamida avtomobilning vertikal dinamikasi yaxshilanishi mumkin. Shuning uchun boshqariladigan osma o'zining yaxshi ishlashi va qo'llanilishi tufayli nojo'ya ta'sirni bartaraf etish uchun birinchi tanlovdir. Biroq, ikkinchi darajali rezonans atrofida boshqariladigan osmaning ishlashi ikki darajali erkinlik (2-DOF) chorak avtomobilining o'ziga xos cheklovlari bilan cheklangan (9-rasm).



9-rasm. Massa nisbati ta'sirlari: shina egilishi



10-rasm. 2-DOF (2 darajali erkinlik) avtomashina modeli

Avtomobilning tebranish-akustik qulayligi uning eng muhim qabul qilingan sifatlaridan birini ifodalaydi, shu bois mijozga subyektiv bog‘liq. Insonga subyektiv jihatdan bog‘liq bo‘lgan boshqa avtomobil xususiyatlari – uslub, ergonomika, termal qulaylik, faol va passiv xavfsizlik, harakat, yoqilg‘i sarfi va boshqalar.

“**Eksperimental tadqiqotlar**”ga bag‘ishlangan uchinchi bobda ishlab chiqilgan matematik va Matlab/Simulink dasturidagi imitatsion modellar ishonchliligini baholashda dunyoning yetakchi laboratoriyalari tomonidan o‘tkazilgan eksperimental tadqiqot natijalari taqqoslangan. Bu eksperimental natijalar AQSh Yonilg‘i va transport vositalarining milliy laboratoriyasi NVFEL (National Vehicle and Fuel Emissions Laboratory) tomonidan Toyota Camry LE 2018 avtomobilida va Argonn milliy laboratoriyasi (Argonne National Laboratory) tomonidan Kia Soul 2015 elektrik avtomobilida olingan. Shuningdek, Aydaxo milliy laboratoriyasining (Idaho National Laboratory) istiqbolli avtomobillar bo‘limida olingan batareyaning eksperimental natijalaridan foydalanilgan.

Gibrid yuritmal avtomobillarda elektr mashina tortish (elektr dvigatel) va tormozlash (generator) rejimlarida ishlaydi. Generator rejimida elektr mashina elektr energiyasini ishlab chiqaradi va batareyani zaryad qiladi.

Gibrid yuritmal avtomobilning tortishish-tezlik va yoqilg‘i-iqtisodiy xususiyatlarini har tomonlama baholashda, tortishish elektr batareyasi modelida amalga oshiriladigan quvvat, energiya yig‘uvchanlik, zaryadlash va zaryadsizlash jarayonidagi chegaralar, zaryadlash/zaryadsizlash siklining FIK kabi parametrlarni o‘z ichiga olishi kifoya.

Mavjud modellar TAB ning turli xossalarini baholashga imkon beradi, lekin yuqorida aytib o‘tilganidek, ular murakkab matematik apparat orqali tasvirlangan.

Ushbu modelda EYuK (Ye), R_{dch} zaryadsizlashda ichki qarshilik va R_{ch} zaryadlashda TAB zaryadlash darajasining funksiyalari hisoblanadi, ya’ni,

$$E = f(SOC), R_{dch} = f(SOC) \text{ va } R_{ch} = f(SOC)$$

Elektrotexnika kursidan ma’lumki, EYuK quyidagilarga teng:

Batareyani zaryadlash rejimida:

